

## DEYKSIS VA ANAFORA

**Ishanjanova Munosibxon**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Ochilova Risolat**

*Filologiya tillarni o'qitish: (fransuz tili)*

*yo'nalishi talabasi*

Hozirda olimlarning deyxsis va anafora hodisalarini o'rganish yuzasidan tadqiqotlari davom etmoqda. N.Volkov deyxsis sub'ektiv nutq harakati vaziyatining tarkibi qismlarini ko'rsatsa, anafora muayyan matn tarkibiy qismlarini, ya'ni bir nutq harakatining boshqasiga aynan tenglashtirilishini ko'rsatadi va anaforik ko'rsatish deyxsisning xususiy ko'rinishidir deb ta'riflaydi[1].

Olmon tilshunosi K.Exlix deyxsis va anafora bir-biri bilan bog'liq hodisalar ekanligini ta'kidlaydi[2]. Darhaqiqat, deyxsisning matnlarda anafora, katafora, epifora kabi stilistik shakllar ko'rinishida namoyon bo'lishi deyxsisning stilistik xususiyatini aks ettiradi.

Xorij tilshunoslari qarashlarida anafora deyxsisning alohida matn tarkibidagi "yasama" turi hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, deyxsisning anaforik ko'rinishi badiiy matnning oldingi qismlaridagi referentni qayta eslatish, u haqdagi fikrning davom ettirilishi bilan bog'liq. Shu sababli anafora "tekstoidlar" guruhiga kiritiladi[3].

Ye.M.Volf bu hodisaga ancha keng ta'rif beradi: "Anaforik ishora muayyan nutq bo'lagini o'zi bilan bitta umumiy referentga ega bo'lgan boshqa nutq bo'lagiga havola qiladi va uch element – ikkita til ifodasi (bulardan kamida bittasi deyktik belgi hisoblanadi yoki deyktik ko'rsatkichini qamrab olgan bo'ladi) hamda bu ikki ifoda havola qilinayotgan referentning o'zaro munosabatdoshligi asosiga quriladi. Shu sababli, aynan anaforani ko'pincha koreferentlik yoki koreferent ishora deb atashadi[4]". Bundan ko'rinadiki, anaforik qo'llanish uchun uch element bo'lishi taqozo qilinadi.

Bunda deyktik birlik ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa, antetsedent esa deyxsis ishora qilayotgan so'z bilan beriladi. M.Hamroev o'z tadqiqotida antetsedent atamasini realizator atamasi bilan almashtirib qo'llashni tavsiya qiladi. Olim realizator antetsedent deyktik ishora qilayotgan nutq birligiga ko'ra kengroq ma'no bildirishini aytadi[5].

Matnda anafora deyktik belgi va realizator o'rniga ko'ra ikki turga bo'linadi[5].

1) kontakt anaforik qo'llanish. Bu holatda matn tarkibidagi deyxsis va realizator oralig'i yaqin masofada keladi. Makon deyxsis kontekstdagi sodda gapga ishora qilib, anafora vazifasiga ko'chadi. Masalan, fransuz tilida: A chaque bloc, la rue changeait d'aspect. Ici et là, je voyais les restaurants très chers certainement, et des clubs réservés aux adultes accompagnés. O'zbek tilida: Frontda yurarkan, bu yerlarni tushida ham, o'ngida ham ko'z oldidan nari ketkazolmagan edi[7]. Misollardan ko'rinadiki, anafora

hodisasi ikki sodda gapning mazmunan aloqa vositasi sifatida namoyon bo'lmogda. Yana shuni ta'kidlash lozimki, anafora nutqda qaytariqlarning ham oldini oladi.

2) distant anaforik qo'llanishi. Bunda deytik belgi va realizator o'rtasida gaplar va abzatslar soni ko'p bo'ladi. Masalan, fransuz tilida: Si grosse et si profonde quelle soit, elle na point perdu sa transparence; vous y voyez serpenter à part chaque groupe de notes qui s'échappe des sonneries; vous y pouvez suivre le dialogue, tour à tour grave et criard, de la crécelle et du bourdon; vous y voyez sauter les octaves dun clocher à lautre; vous les regardez s'élancer ailées, légères et sifflantes de la cloche d'argent, tomber cassées et boiteuses de la cloche de bois; vous admirez au milieu d'elles la riche gamme qui descend et remonte sans cesse les sept cloches de Saint-Eustache; vous voyez courir, tout au travers, des notes claires et rapides qui font trois ou quatre zigzags lumineux et sévanouissent comme des éclairs. Là-bas, cest labbaye Saint-Martin, chanteuse aigre et fêlée; ici, la voix sinistre et bourrue de la Bastille; à lautre bout, la grosse tour du Louvre, avec sa basse-taille[8].

O'zbek tilida: Lug'umbek uchastkasi qurilishning eng og'ir joylaridan biri hisoblanadi. Bu yerda kanal juda balandlikdan keladi. Agar shu qiyalikdan suv oqadigan bo'lsa uni to'sib ham, burib ham bo'lmaydi. Lug'umbek atrofidagi dalalarga suv chiqmay qoladi. Loyiha tuzishda bu yerda nihoyatda murakkab kanal yo'li ochilishi ko'zda tutilgan. Suv to'qqizta sharsharadan quyilib keladi. Har ikki-uch kilometrdan keyin kanal sharshara orqali yetti-sakkiz metr pastga birdan tashlanadi. To'qqiz joyda bunaqa chuqur kanal qazish anchagina katta kuch talab qiladi. Qazilgan tuproq balandlikka bir necha kilometr trassa bo'ylab chiqarib borilishi kerak.

Andijon polvonlaridan tashkil topgan o'nlab brigadalar shu yerda ishlayapti.

Azizxonni polvonlar brigadasining boshlig'i Jo'ra polvon G'oyipov yana o'z qanotiga oldi. Tuproq otayotganlarning yuzlari changga belangan, pastda ishlayotganlar to'zonda mutlaqo ko'rinmas edilar. Azizxon yaktagini yechib to'zon orasiga sho'ng'ib ketdi. Jo'ra polvon pastlikda edi. U belkurak bilan otgan tuproq to'rt metr balandlikdagi supaga borib tushar, u yerdagi uch yigit pastdan irg'itilgan tuproqni kurak bilan yana uch yarim metr balandlikka otardi[6].

Yuqoridagi misollarda kontakt anaforik qo'llanishda ici va o'zbek tilida bu yer ravishlari, ya'ni yaqinga ishora birliklari ishlatilsa, distant anaforik qo'llanishga fransuz tilida là-bas, o'zbek tilida u yer uzoqqa ishora qiluvchi deyxislari xosdir. Ishora so'zlar va realizator orasida bir necha gaplarning berilishi masofani hosil qilmoqda.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Волков Н. Н. Семантика и дейктические функции личных местоимений в современном английском языке. Дис. ...канд. филол. наук. — Москва, 1984. — С. 174.
2. Ehlich K. Anaphora and deixis: same, similar or different [Text] / K. Ehlich // Speech, Place and Action / ed. by R. J. Jarvella. W. Klein. — Chichester: Wiley, 1982. — P. 311
3. Шерматов А. Инглиз илмий-техник матнида дейксиснинг ифодаланиши. Филол.фан.ном...дис.— Самарқанд, 2008. — Б. 155.
4. Вольф Е.М. Грамматика и семантика местоимений. — Москва: Наука, 1974. — С. 6.
5. Ҳамроев М.А. Ҳозирги ўзбек тилидаги кўрсатиш олмошларининг функционал-семантик хусусиятлари. — Тошкент, 2009. — Б. 28.
6. Саид Аҳмад. Уфқ. — Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. — Б. 290.
7. Victor Hugo. Notre-Dame de Paris. — Édition du groupe «E-books libres et gratuits». 2006. — P. 146  
[http://www.crdp-strasbourg.fr/je\\_lis\\_libre/livres/Hugo\\_NotreDameDeParis.pdf](http://www.crdp-strasbourg.fr/je_lis_libre/livres/Hugo_NotreDameDeParis.pdf)  
(Acesse date: 27.01.2020.)